

**MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK
FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI
IQTISODIY TIZIM SIFATIDA**

IKROMOV. E. I.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mintaqada biznes yuritish sharoitlari uning raqobat ustunligini ta'minlovchi va investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir etuvchi katta ahamiyatga ega parametrlarga, birinchi navbatda, jo'g'rofiy joylashuvi, iqtisodiy rivojlanish darajasi va undagi bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, kommunikatsiya imkoniyatlari, ta'lim, kadrlar va marketing salohiyati kabi omillar bilan belgilanadi.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik sub'ektlari, investitsiya, mintaq iqtisodiyoti, mintaq iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, investitsion loyihalar, investitsion jozibadorlik, samaradorlik.*

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda tashqi resurslar amaliy naf beradigan vosita bo'lib xizmat qilishi uchun mintaqalar aniq va batafsil ishlab chiqilgan harakat dasturiga ega bo'lishi, shuningdek, ularni amalga oshirishda davlat tomonidan jiddiy ko'mak ko'rsatilishi lozim.

Bugungi xo'jalik yuritish sharoitlarida mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiy holati ko'p jihatdan mahalliy davlat hokimiyati organlari mintaq iqtisodiyotini rivojlantirishning yangi, noan'anaviy texnologiyalarini topish va amalda qo'llay bilishlariga bog'liq. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki mintaqaviy resurslar yetarli bo'lmagan holatlarda mamlakat va xorijiy investitsiyalarga bo'lgan kuchli ehtiyoj vujudga keladi. Bu esa oqilona mintaqaviy investitsion siyosat yuritilishini talab etadi.

Respublikamiz mintaqalari xorijiy investorlar uchun, birinchi navbatda, ishlab chiqarish va inson resurslari, tovar bozorlari va ishlab chiqariladigan mahsulot narxi darajasi nuqtai nazardan jozibadordir.

Mintaqa miqyosida tadbirkorlik investitsiya faoliyatini boshqarishni tashkil etish, bu sohada me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, tuzilmaviy mexanizmlarni shakllantirish, jarayonlarni ishga tushirishdir. Ularning faoliyat ko'rsatishi mintaq miqyosida barqaror natijalarni beradi. Bu esa, mintaqada ma'lum investitsion jozibadorlik tendensiyalarining mavjudligi haqida so'z yuritish imkonini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan «Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi», Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” loyihalari jamoatchilik muhokamasiga taqdim qilindi.

Yaqin kelajakda Yangi O'zbekistonni jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon, tinch va osoyishta mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan mazkur tarixiy hujjatlar loyihalari bo'yicha fikr bildirish ertangi kuniga befarq bo'lmagan barchamiz uchun sharaflidir. Shuning uchun

ham qalb amri bilan ushbu hujjatlarni diqqat va hayajon bilan o'qib, Harakatlar strategiyasi bilan solishtirib, tahlil qilib, o'z oldimizga quyidagi savolni qo'ydik. Mintaqada tadbirkorlik sohasi yirik investor uchun qachonki, u iqtisodiyot real sektorining faoliyat strategiyaliligi, resurslar taqsimotining maqsadliligi va boshqaruv tizimining ishonchliligi kabi muhim jihatlarini o'zi uchun ustuvor vazifalar qilib olsa, va yuqorida qayd etilgan ustuvor vazifalarni iqtisodiyot real sektorida izchil olib borsagina jozibador bo'ladi. Mintaqaviy tadbirkorlik investitsiya faoliyati uchun sharoit yaratishi, ularning ishonchliligi va samaradorligiga maqsadli ta'sir etishi, barcha darajalarda faoliyat shaffofligini ta'minlashi, samarali investorlarga nisbatan protektonizm – bularning bari mintaqada tadbirkorlik investitsion jozibadorligini samarali boshqarish imkonini beradi.

Investitsion faoliyat va qabul qilinadigan investitsion qaror tadbirkorlik faoliyatining barcha jabhalariga va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga kompleks ta'sir o'tkazishini inobatga olsak, qabul qilinadigan investitsion qaror texnik, axborot va tashkiliy nuqtai nazardan asoslangan bo'lishi shart.

Yo'nalishiga ko'ra, tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion faoliyatini ikki asosiy turga bo'lish mumkin: ichki va tashqi investitsion faoliyat.

Ishlab chiqarish quvvatining kengaytirilishi korxona salohiyatini, chiqarilayotgan mahsulotlar hajmini oshirishga, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishga va pirovardida foydaning ortishiga hissa qo'shadi.

Texnika bilan qayta ta'minlash va texnik rekonstruksiya qilish yangi texnologiyalarga o'tish, mavjud asbob-uskunalarini yanada takomillashgan asbob-uskunalar bilan almashtirish maqsadlarida amalga oshiriladi. Bu chiqarilayotgan mahsulot birligiga sarflanadigan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Bu esa, foydaning ko'payishiga va ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga olib keladi.

Chiqarilayotgan mahsulot hajmining oshirilishi foydaning ortishi hisobiga katta daromad olish, qolaversa, bozorga o'z ta'sirini o'tkazgan holda uning katta qismini egallash imkonini beradi.

Yangi mahsulot ishlab chiqarish foydaning o'sishiga olib keladi va mahsulot turlarining xilma-xilligini ko'paytirishga yordam beradi. Mahsulot xilma-xilligining ko'payishi esa chiqariladigan mahsulotlarning ayrim turlariga bo'lgan talab hajmi dinamikasining tebranishi bilan bog'liq riskni kamaytirish imkonini yaratadi.

Bizning fikrimizcha, mintaqalarda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida ichki investitsiyalashdan tashqi investitsiyalashga o'tish quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

1. Korxonani qo'lga kiritish (xarid qilish), ya'ni biror bir kompaniya aksiyalarining nazorat paketini xarid qilish. Bu quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

- texnologik zanjir bo'g'inlaridagi bo'shliqlarni bartaraf etish;
- bozorda barqaror mavqega ega bo'lish;
- korxonani ortiqcha vositalarni investitsiyalashga safarbar qilish;
- sherikchilikni mustahkamlash;
- faoliyat sohasini o'zgartirish yoki kengaytirish.

2. Qimmatli qog'ozlarga mablag' kirish, ya'ni ularni xarid qilish orqali biror faoliyatni amalga oshirmay, barqaror daromad olish ko'zlanadi. Bunday strategiyada risk darajasi ancha past, shu bilan birga, daromad ham kam bo'ladi.

Xullas, korxonaning investitsion faoliyati doim korxona faoliyati samaradorligini oshirish va pirovardda foydani ko'paytirishga qaratilgan bo'ladi.

Ma'lumki, foyda investitsiyaga xarajat qilishni amalga oshirishning qo'zg'atuvchi motivi hisoblanadi. K.R.Makkopsll va S.L.Byuro o'zining iqtisodiyot: prinsiplari, muammolari, siyosat nomli ishida Ishbilarmonlar, foyda kelishi kutilgandagina ishlab chiqarish vositalarini sotib olishadi» – deb yozadi. Ular yana shuni ta'kidlashadiki, iqtisodiy o'sishni investitsion tarkibining ahamiyati quyidagicha tushuntiriladi:

- mehnat unumdorligi bilan bandlikning real daromadi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Fond bilan qurollanganlik darajasini oshirish mehnat unumdorligini oshirishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi.

Haqiqatan ham, empirik tadqiqotlar kapital mablag'lar hajmi va YaMMning o'sishi o'rtasida yuqori ahamiyatli ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi:

- ekin maydonlarini kengaytirish imkoniyatlari chegaralangan. Shu bois mavjud qishloq xo'jaligi ishchi kuchining jihozlar bilan yaxshi ta'minlanganligi sohada mahsulot yetishtirish hajmini oshirishning muqobili hisoblanadi;

- agar investitsiya hajmining ortishi natijasida aholining o'sishiga nisbatan mahsulot yetishtirish hajmi ilgarilab ketsa, u holda jamg'armalarning ortishi ehtimolligi yuzaga keladi, bu esa, o'z navbatida, kapital mablag'larning yanada o'sishiga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, kapitalning to'planishi shuning o'zi bilan rag'batlantiriladi, to'planish jarayoni esa kumulyativ xarakter kasb etadi¹².

Iqtisodiy o'sishga investitsiyaning ta'sirini ko'rib chiqar ekan, shved iqtisodchisi K.Eklund ta'kidlaydiki, real yoki naqd to'plangan kapitalning o'sishi oxirgi 100 yilda sanoatlashgan mamlakatlarda hayotning moddiy darajasi tez ortishida muhim omil hisoblanadi.

Demak, bugungi farovonlik ko'p jihatdan kechagi investitsiyalarning natijasi hisoblanadi, bugungi investitsiyalar esa, o'z navbatida, ertangi ishlab chiqarish unumdorligining ortishi va yanada yuqori farovonlikka zamin hozirlaydi. Tadqiqotchilar shunday fikr yuritishadiki, ishlab chiqarish faoliyatlari uchun qulay sharoit yaratish, investitsiyalarni ko'tarish (investitsion faollik, mablag'larning normal aylanishini tiklash) makroiqtisodiy siyosatning negiziga aylanishi lozim.

Iqtisodiy nazariya investitsiyalarga jamiyat taraqqiyotida ustuvor rol beradi va ular asosida iqtisodiy o'sishni faoliyatning mustaqil yo'nalishi sifatida ko'rsatishadi. Investitsion faoliyatga davlat ta'sirining murakkab usul va uslublar tizimi yaratilgan. Davlatning investitsion siyosati jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti davlat tomonidan boshqarilishida muhim tarkib hisoblanadi.

Investitsion faoliyat, bu foyda olish yoki boshqa foydali samaraga erishish maqsadida investitsiya ajratish va amaliy harakatni amalga oshirishdir.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Investitsion faoliyatning sub'ektlari jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, xorijlik fuqarolar, shuningdek, davlat va xalqaro tashkilotlar bo'lishi mumkin. Ular orasida burtmachilar, ish bajaruvchilar, resurslarni yetkazib beruvchilar, vositachilar, bank, sug'urta tashkilotlari, investitsion fondlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Investitsion faoliyat ob'ektlarini aktivlarning turlari bo'yicha ajratish mumkin: moddiy, nomoddiy (sezilmas) va moliyaviy. Yuzaga kelgan investitsiya tarkibi moliyaviy aktivlarning moddiy aktivlardan ustun kelishi bilan xarakterlanadi. Moliyaviy aktivlar tarkibida qimmatbaho qog'ozlar va qisqa muddatli majburiyatlarning ulushi ortadi.

Moliyaviy va moddiy aktivlarning nisbati moliyaviy o'zaro bog'liqlik koeffitsienti bilan o'lchanadi. U mamlakatdagi sof xorijiy aktivlarni ayirib tashlagan holda moddiy aktivlar o'lchamiga jami moliyaviy aktivlar nisbati sifatida hisoblanadi. O'zaro bog'liqlik koeffitsientini, ya'ni moliyaviy nomoddiy aktivlar o'rtasidagi nisbatni ham hisoblash mumkin. bu esa investitsiya tarkibini yanada to'liq baholashga imkon beradi.

Investitsiyalar, ularni hisoblash, tahlil qilish va rejalashtirish maqsadida qator belgilar bo'yicha tasniflanadi. Bu belgilar ma'lum. Bu o'rinda faqatgina yalpi va sof investitsiyalarning ajralishi to'g'risida eslatib o'tmoqchimiz. Yalpi sof ichki investitsiyalar, K.R.Makkonell va S.L.Bryularning hisoblashicha, joriy yilda ilab chiqarish mobaynida qo'llanilgan mashina, jihoz va uskunalarni egallash uchun mo'ljallangan barcha investitsion tovarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

I.L.Blankaning aniqlashi bo'yicha, sof investitsiyalar muayyan davrdagi amortizatsion chegirmalarga bo'lingan yalpi investitsiya summasini ifodalaydi. Iqtisodiy mazmuni bo'yicha ular ilgari xalq xo'jaligi hisoblarida qo'llanilgan jamg'arma tushunchasiga taxminan mos keladi.

Bu turdagi investitsiya dinamikasi mamlakatning u yoki bu bosqichdagi iqtisodiy rivojlanishini xarakterlaydi. Agar sof investitsiya o'lchami salbiy bo'lsa, u ishlab chiqarish salohiyatining pasayishi va ishlab chiqarish hajmining qisqarishidan dalolat beradi. Yalpi va sof investitsiyaning tengligi ishlab chiqarish salohiyati o'zgarmasligini xarakterlaydi, ya'ni bunda iqtisodiy o'sish kuzatilmaydi. Sof investitsiyaning musbat qiymati iqtisodiy rivojlanish (iqtisodiy o'sish)ning ko'tarilganligini xarakterlaydi.

Ma'lumki, davlat va tadbirkorlik sub'ektlarining muhim vazifasi investitsion strategiyani ishlab chiqishi hisoblanadi. Xorijlik iqtisodchilar hali strategiya atamasining yagona ta'rifi bo'yicha bir to'xtamga kelishmadi. U Dj.Neyman va O.Morgenshterning ishlarida o'yinlar nazariyasida keng qo'llanilgan: Strategiya, bu har bir mumkin bo'lgan vaziyatda o'yinchining qanday tanlov (yo'l) qilishini ko'rsatuvchi to'liq rejadir. G.Steyner va Dj.Mayner strategiyaga boshqacha ta'rif berishadi: bu tashkilot missiyasining formulirovkasi, uning niyati va siyosiy maqsadi, dasturlari va unifikatsiyalangan, integratsiyalashgan va tushunarli rejasi, u shunday ishlab chiqiladiki, korxona u orqali o'z maqsadlariga erishishiga ishonadi.

K.Xatten va M.Xattenning ishlarida shakllangan ta'rifga muvofiq, Strategiya, bu tashkilotning o'z maqsadlariga erishish yo'lidir. Keltirilgan definititsiyalarda asosiy urg'u tashkilotning maqsadlari va missiyasiga qo'yilgan.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Rossiyalik ayrim olimlarning ishlarida birmuncha boshqacharoq yondashuv kuzatiladi. Binobarin, V.A.Chernov strategiyaga korxonaning muayyan rivojlanish yo'nalishi (boshqaruv qarorlarini qabul qilgan holda) sifatida qaraydi. Fikrimizcha, ancha aniq ta'rif G.P.Konstantinov tomonidan berilgan: Strategiya, bu tashkilotga eng yaxshi usulda o'z missiyasini bajarish va barqaror raqobatbardosh ustuvorlikka erishishga imkon beruvchi barcha resurslarning o'zaro ta'sir modelidir.

Mazkur tadqiqot ishida investitsion siyosat tushunchasi ostida moddiy va nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan barcha resurslarning o'zaro ta'sir modeli (namunasi) tushuniladi. Bu model tizimlarga taraqqiyot ustuvorligini belgilash va qo'yilgan maqsadlarni bajarishga, bunda ijobiy ijtimoiy samara hamda bozorda barqaror raqobatbardosh ustuvorlikka erishishga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, investitsion strategiya quyidagilarni ko'zda tutishi lozim:

- tashkilotning strategik maqsadi (rivojlanishi; pozitsiyani egallashi; sotish va likvidatsiya) va investitsion faoliyatni boshqarish darajasini aniqlash;
- tashkilotning maqsadi va boshqaruv darajasiga bog'liq ravishda tizimlarning taraqqiyot ustuvorliklarini belgilash;
- mablag' ajratish manbalarini shakllantirish va ularni foydalanishga jalb etish strategiyasini ishlab chiqish.

Respublikada iqtisodiy faoliyatni boshqaruvchi qonuniy va me'yoriy baza yetarlicha ishlab chiqilmagan, inflyatsiya va ssuda foiz stavkalari hanuzgacha investitsion jarayonni tezlashtirishga ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy shart-sharoit taqozo etayotgan talab sifatida eskirgan asosiy fondlarni zamonaviysiga almashtirishga bo'lgan talabni ko'rsatish mumkin. Iqtisodiyot faqat shu talab bajarilgandagina tizim sifatida rivojlanishi, ichki hamda tashqi bozorda raqobatchilarga qarshi turishi mumkin.

Respublikamizda tadbirkorlikning rivojlanishiga alohida e'tibor berilayotganligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ushbu sohaning naqadar muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tajribasi tadbirkorlikni rivojlantirishda ham o'z ahamiyatiga ega bo'lmoqda.

Bozor iqtisodiyoti va rejali iqtisodiyotda investsiyalar mohiyatiga turlicha ta'rif beriladi. Rejali iqtisodiyotda qo'llanilgan kapital kiritish (investitsiya) atamasiga berilgan ta'rif investitsiya tushunchasining ma'lum qisminigina qamrab oladi va faqatgina asosiy fondlarni ko'paytirish va takomillashtirishgagina taalluqli. Resurslarni taqsimlashning ma'muriy tizimi sharoitida moliyaviy va boshqa investitsiyalar mavjudligiga oid fakt rus iqtisodchi olimlari tomonidan tekshirilmagan va muhokama qilinmagan. Hozirda mamlakatda har ikki atama ham qo'llaniladi. Kapital kiritish atamasi asosan asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishga qaratiladigan investitsiya turini bildiradi. Investitsiyalar va kapital kiritish atamalari bir-biriga ma'no jihatdan yaqinligi bois, ko'p mualliflar ularni sinonim, deb hisoblashadi.

Investitsiyalar kategoriyasi investitsion faoliyat tushunchasi, ya'ni investitsiya kiritish yoki investitsiyalash va investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan barcha amaliy harakatlar bilan yaqindan bog'liq. Bozor iqtisodiyotida investitsiyalar o'z mohiyatiga ko'ra, investitsion faoliyatning ikki tomonini qamrab oladi: resurslarni sarflash va natija olish. Investitsiya muayyan natijaga (daromad yoki boshqa biror natija) erishish uchun amalga oshiriladi. Agar u kutilgan natijani bermasa samarasiz hisoblanadi.

Tadbirkorlik muhitining jozibadorligini aniqlashda o'rganilayotgan mintqa aholisining markazlarda gavjumligi va aholi yashash joylarining o'zaro qanday masofadaligi ham muhim o'rin tutadi. Bunda mintaqaning investitsion jozibadorlikni shakllantirishda ko'p yillik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida to'plangan infratuzilmaviy o'zlashtirilishi, innovatsion va intellektual salohiyat kabi omillar eng ko'p hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. EI, I. JAHON SAVDO KO'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR.
2. EI, I. (2024). O'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR O'ZGARISHLARINING 2022 VA 2023 YILLAR VA TARMOQLAR MIQYOSIDA TAHLILI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 44-52.
3. EI, I. (2024). YALPI ICHKI MAHSULOT TUSHUNCHASI VA UNI HISOBLASHNING ASOSIY SHARTLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 266-274.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.
5. EI, I. (2024). MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 275-281.
6. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOG'INI YASHILLASHISH HOLATI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 165-171.
7. EI, I. (2024). MILLIY KOMPANIYALAR RAQOBATBARDOSHLIGI OMILLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 168-174.
8. EI, I. (2024). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 175-182.
9. EI, I. (2024). QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARINI YASHIL IQTISODIYOT ORQALI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 172-180.
10. EI, I. (2024). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO'LLAR QO'YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 315-324.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

11. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XO 'JALIGI IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG 'I SIFATIDA. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 156-164.
12. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT VA UNING USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.
13. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Xizmat Ko 'Rsatis Korruxonlari Faoliyatlarining Samaradorligini Oshirishning Tashkiliy Mexanizmini Takomillashtirish. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 608-615.
14. Ikromov, E. (2024). A METHODOICAL APPROACH TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(5), 180-188.
15. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF ETHICS AND CULTURE IN THE INTRODUCTION OF MODERN METHODS OF MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(5), 171-179.
16. Ibodulloyevich, I. E. (2024). MENEJMENTNING ZAMONAVIY USLUBLARINI JORIY ETISHDA ETIKA VA MADANIYATNING AHAMIYATI.
17. Ikromov, E. (2024). CLASSIFICATION OF LEADERSHIP STYLES IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 615-621.
18. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Inqirozga Qarshi Choralar Dasturi Doirasida Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlik Subyektlarini Marketing Tizimi Asosida Rivojlantirish Muammolari. *Miasto Przyszłości*, 54, 1495-1503.
19. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
21. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
22. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.
23. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Tadbirkorlik Faoliyatini Davlat Tomonidan Qo 'Llab-Quvvatlanishi Va Sohaga Mintaqalar Miqyosida Investitsiya Jalb Qilish Samaradorligi. *Miasto Przyszłości*, 53, 515-523.
24. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 504-507.
25. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
26. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
27. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
28. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O 'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

29. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
30. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
31. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
32. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
33. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
34. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.
35. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
36. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Ijtimoiy Soliq Stavkasini Kamaytirish Orqali Davlat Budjeti Daromatlarini Oshirish Imkoniyatlari. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 348-353.
37. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
38. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
39. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
40. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO 'NALISHLARI.
41. Bahodirovich, X. B. (2025). KORXONALARDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 72-78.
42. Bahodirovich, X. B. (2025). O'ZBEKISTONDA SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 47-53.
43. Bahodirovich, X. B. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 29-34.
44. Bahodirovich, X. B. (2025). SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 37-43.
45. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
46. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 45-53.

47. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O 'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 42-50.

48. To'rayevna, S. N. (2024). TEXNOLOGIYA DISKURSI VA YANGI MEDIA SIYOSIY IQTISODIYOTI.

49. To'rayevna, S. N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.

50. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI.

51. Sodikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 133-139.

52. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). PANDEMIYA SHAROITIDA O 'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDAGI TARKIBIY O 'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI IQTISODIY O 'SISH PROGNOZLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 111-123.

53. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT TARMOQLARIDAGI TARKIBIY O 'ZGARISHLAR VA ULARNI BAHOLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 101-110.

54. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH YO 'NALISHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 245-254.

55. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORT-IMPORT KO 'RSATKICHLARINING TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 151-159.

56. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). JAHON SAVDO KO 'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 236-244.

57. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ БЕЗРАБОТИЦЫ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ АФРИКИ И УЗБЕКИСТАНЕ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 122-128.

58. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВВП СТРАН ЕВРАЗИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЮЗА (ЕАЭС) И УЗБЕКИСТАНА. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 149-156.

59. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). СПРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ИНФЛЯЦИИ В СТРАНАХ ЕС И УЗБЕКИСТАНЕ. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 206-212.

60. Abidovna, A. S., & Sadilloevna, D. M. (2024). THE IMPACT OF MANAGEMENT PRACTICES ON INNOVATION IN ENTREPRENEURSHIP. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 232-237.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

61. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK JARAYONNING TANNARXINI HISOBLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(3), 17-23.
62. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH, XARAJATLARNI TAHLIL QILISH YONDASHUVLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 47-53.
63. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O 'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 42-50.
64. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Qudratova, G. M. (2025). YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYALAR. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 15-22.
65. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TANNARXNI HISOBGA OLIH VA UNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 40-46.
66. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). KORXONALAR MAHSULOTLARI TANNARXINI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 54-61.
67. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). XARAJAT TUSHUNCHASI VA MAHSULOT TANNARXINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 79-85.
68. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). STANDARTLARGA MUVOFIQ XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 62-68.
69. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). BUYURTMA BO'YICHA XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(3), 24-30.
70. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.
71. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 193-198.
72. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYALARINING IERARXIK TUZILISHI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 187-192.
73. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 325-330.
74. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 183-187.
75. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING MOLIVAVIY REJASI VA UNING MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 8-14.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

76. Raxmonqulova, N. O. (2025). HODIMLARNI RAG 'BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYA ORQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 2(1), 29-35.

77. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOT MAQSADLARINI BELGILASH VA ULARGA ERISHISH BO 'YICHA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 22-28.

78. Hakimovich, T. M. (2025). PRIORITIES FOR DEEPENING STRUCTURAL CHANGE IN THE ECONOMY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 84-90.

79. Hakimovich, T. M. (2025). HUDUDLAR IQTISODIYOTINI JADAL RIVOJLANTIRISH BO 'YICHA STRATEGIYALARNING QO 'LLANILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 129-136.

80. Bazarova, M. (2025). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 29-36.

81. Shadiyev, A. X. (2025). A MODERN APPROACH TO THE METHODOLOGY OF TEACHING ECONOMIC DISCIPLINES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 134-139.

82. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.

83. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 48, 685-690.

84. Shadiyev, A. (2024). TA 'LIM MENEJMENTI. TA 'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).

85. Olimovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4 (55)), 40-42.

86. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.

87. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. *Gospodarka i Innowacje*, 54, 107-112.

88. Akbarovna, N. N. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT METHODS IN AN INNOVATIVE ECONOMY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 407-412.

89. Akbarovna, N. N. (2024). MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO 'LLANILADIGAN ASOSIY KO 'RSATKICHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 278-283.

90. Azimov, B. F. (2024). MOLIYAVIY SEKTORDA STATISTIK KUZATISH VA UNING USULLARI. *XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, 1(1), 28-31.

91. Жумаева, З. К. (2019). Современные Тенденции И Направления Развития Инвестиционной Деятельности В Регионах Республики Узбекистан. *Современные Проблемы Социально-Экономических Систем В Условиях Глобализации*, 148-152.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

92. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
93. Bustonovna, J. Z. (2024). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH.
94. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM SHARTLARI. *Miasto Przyszłości*, 55, 1436-1440.
95. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 319-326.
96. AT, I. (2024). IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA INVESTITSIYA QILISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 149-155.
97. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
98. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
99. Джураева, М. С. (2025). АВТОНОМНЫЕ И ИНТЕГРИРОВАННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 135-141.
100. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHGA O'TISH SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 307-312.
101. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 93-99.
102. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 284-292.
103. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQADA MEHNAT BOZORI. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XUDUDIIY ASOSLARI, AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 307-309.